

JANUBIY O'ZBEKISTON VA FARG'ONA VODIYSIDAGI QADIMGI URBANIZATSIYA JARAYONLAR

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabalari

Elguzarova Fazilat va Normurodova Gulasal

Annotasiya. *Ushbu maqolada Janubiy O'zbekiston va Farg'ona vodiysidagi qadimgi urbanizatsiya jarayonlari qay tarzda kechgani haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Janubiy O'zbekiston (Surxon vohasi), Shimoliy Baqtriya hududlaridagi manzilgohlar va ularda yashagan aholi hamda ularning madaniyati o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *Sopollitepa, Shimoliy Baqtriya, Janubiy Tojikiston, Jarqo'ton, maxsus qabristonlar, svillizatsiya, ijtimoiy rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о том, как происходили древние урбанизационные процессы на юге Узбекистана и в Ферганской долине. Поселения и проживавшие в них люди и их культура изучались в Южном Узбекистане (Сурханский оазис), Северной Бактрии.*

Ключевые слова: *Сополлитепа, Северная Бактрия, Южный Таджикистан, Жаркотон, специальные могильники, свилизация, социальное развитие.*

Annotation. *This article provides information about how the ancient urbanization processes took place in Southern Uzbekistan and the Fergana Valley. Settlements and people who lived in them and their culture were studied in Southern Uzbekistan (Surkhan Oasis), Northern Bactria.*

Key words: *Sopollitepa, Northern Bactria, Southern Tajikistan, Jarkoton, special cemeteries, svilization, social development.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 24-may kuni "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2995-sonli

qarorni imzoladi. Qarorga keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro‘-e‘tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan[1].

Manbaga oid adabiyotlar tahlili. Maqolani yozish davomida Agzamova G “O‘zbekiston shaharlari (XVI-XIX asr o‘rtalarida)”, Eshov B. “Qadimgi O‘zbekiston shaharlari tarixi”, B. Eshov “O‘rta Osiyo shaharlari tarixi”, X. Pulatov “Shaharsozlik tarixi” kabi adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish davomida ilmiy, adabiyotlar tahlili, qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Amudaryoning o‘rta va yuqori oqimi shimoli hamda janubida joylashgan yerlar «Avesto» ning qadimgi qismlarida Baxdi, fors podsholari mixxatlarida Baqtrish, grek—rim tarixchilari ma’lumotlarida Baqtriya yoki Baqtriyona, hind manbalarida Baxlika, milodning boshlariga oid xitoy manbalarida Daxya yoki Toxolo o‘lkasi sifatida eslatib o‘tiladi. Zamonaviy tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra Baqtriya yerlari bu — Afg‘onistonning shimoliy sharqiy qismini, Janubiy Tojikiston va O‘zbekistonning janubidagi (Surxon vohasi) yerlarni o‘z ichiga olgan. Undan tashqari zamonaviy tarixiy adabiyotlarning barchasi hozirgi kunda Surxondaryo viloyati, Tojikistonning Ko‘lob va Qo‘rg‘ontepa viloyatlarini o‘z ichiga olgan yerlarni shimoliy Baqtriya sifatida e‘tirof etadilar.

Shimoliy Baqtriya hududlaridagi aholining o‘troq manzilgohlari bu yerda Hisor madaniyati keng yoyilgan davrda, ya’ni neolit davrida (mil. avv.VI —IV ming yilliklar) paydo bo‘ladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bu davrga kelib «Hisorlik» ovchilar kichik va yirik daryolar voxalarini, Boysuntog‘ va Kuhitanggacha bo‘lgan tog‘ va tog‘ oldi hududlarini o‘zlashtiradilar. Bronza davriga kelib esa bu hududlarda boshqa ko‘rinishga ega

boʻlgan hamda oʻziga xos xoʻjalik— madaniy shakldagi yangi madaniyatlar shakllana boshlaydi[2].

Ushbu madaniyat sohiblari yashagan manzilgoxlardan biri Sopollitepa boʻlib, bu yodgorlik Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida, Kuxitangtogʻdan oqib tushuvchi kichik daryoning qadimgi irmogʻi boʻyida joylashgan. Sopollitepa paydo boʻlgan soy maxalliy aholi orasida Ulonbuloqsoy deb ataladi. Sopollitepa Oʻzbekiston hududlarida hozirgi kunga qadar aniq boʻlgan eng qadimgi oʻtroq dehqonchilik manzilgohi boʻlib, tadqiqotchilarning fikricha, ushbu madaniyat quyidagi toʻrtta asosiy bosqichga boʻlinadi: 1) Sopolli (mil. avv. 1700 — 1500 yy.); 2) Jarqoʻton (mil. avv. 1500—1350 yy); 3) Molali (mil. avv. 1350-YuOOyy.); 4) Koʻzali (mil. avv. XIII-XII asrlar). Ushbu bosqichlarning sanalari tadqiqotchilar tomonidan maxsus taxlil etilib ilmiy jixatdan asoslangan. (AAsqarov, T. Shirinov). Tadqiqotlar natijalaridan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, Shimoliy Baqtriyaning qadimgi shaharlari uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar va turli: ijtimoiy — iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tabiiy — geografik omillarning taʼsiri natijasida shakllanib kelgan. Qadimgi Sharq va maxalliy koʻrinishdagi urbanistik madaniyatning uygʻunlashuvi qadimgi Baqtriya shaharsozliganing asosini tashkil etadi. Keyinroq esa oʻziga xos boʻlgan shahar madaniyati mustaqil ravishda rivojlanadi.

Mil. avv. II ming yillikning ikkinchi choragida Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida aniqrogʻi, uning gʻarbiy qismida Sopollitepa koʻrinishidagi dastlabki mustahkam manzilgoxlar paydo boʻladi. Ushbu manzilgoxlar bu hududlarda rivojlangan butunlay yangi koʻrinishdagi manzilgoxlar boʻlib, neolit davri (Hisor madaniyati) manzilgoxlaridan ajralib turadi[3].

Sopollitepada tadqiqotlar olib borgan AAsqarovning fikricha, manzilgoh mustahkam asosda qad koʻtargan boʻlib, quyidagi ajralyb turuvchi belgilarga ega: ikki qismli tuzilish — mustahkam markaziy qism va uning atrofida mustahkamlanmagan manzilgoh, uncha katta boʻlmagan maydon, asosiy qismning aniq rejaviy tuzilishi, beshta koʻp xonali turar —joylar qismlarining markazlashuvi va ularning yoʻlaklar bilan ajralib turishi, boʻlma (otsek)lari

bo‘lgan himoya devorlari. Undan tashqari, kulolchilik va metallga ishlov berish xunarmandchiligi hamda dehqonchilikning yetakchi mavqega ega bo‘lishi ham Sopollitepa uchun xosdir.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Sopollitepa aholisining asosiy mashg‘uloti sun‘iy sug‘orishga asoslangan o‘troq dehqonchilikdan iborat edi. Qazishmalar paytida katta xum ko‘rinishidagi idishlardan va omborxonalar vazifasini bajaruvchi xonalar satxidan topilgan arpa, bug‘doy, tariq donlari hamda butun Sopollitepa majmuida ko‘plab uchraydigan don yanchgich, kelisop, ketmon va o‘roqlar aynan dehqonchilik xo‘jaligidan dalolat beradi. Undan tashqari, turar—joy qoldiqlari, manzilgohning tuzilishi va umuman arxeologik topilmalarning ko‘rinishi ham manzilgoh aholisining qadimgi dehqonchilik madaniyatiga xos bo‘lgan o‘troq turmush tarzini ifoda etadi.

Sopollitepa manzilgohi aholisining yana bir muhim xo‘jalik tarmog‘i chorvachilik edi. Qazishmalar paytida juda ko‘plab topilgan uy va yovvoyi hayvonlarning suyaklari aynan mana shu jarayondan dalolat beradi. Umuman olganda, Sopolli madaniyati sohiblari xo‘jaligida sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik va uy chorvachiligi manzilgoxdagi iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan. Undan tashqari ushbu madaniyatga xos bo‘lgan kulolchilik, ishlab chiqaryashning yuqori darajasi, metallga ishlov berishning jadal rivojlanishi, to‘qimachilik sohasining taraqqiyoti kabi omillar manzilgoxning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Sopolli madaniyati hukm so‘rgan davr tarixiy — madaniy jarayonlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mil. avv. II ming yillik Amudaryoning o‘ng va chap qirg‘og‘ida ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha ikkita: Sopolli madaniyati va Dashli madaniyati yoki Sopolli—Dashli madaniyatiniy ikki xil ko‘rinishi keng tarqaladi. Ushbu madaniyatni Amudaryoning o‘ng qirgog‘iga yoyilishi bu hududlarga Janubiy Turkmaniston tog‘ oddi vohalaridan Shimoli — G‘arbiy Afg‘oniston orqali mil. avv. II ming yillikning ikkinchi choragida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholining ko‘chib kelishi bilan bog‘lanadi. Afg‘onistonning shimoli va O‘zbekistonning janubqa, a joylashgan bu davr manzilgoxlari

topografiyasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu ko'chishning yo'nalishi Termizning g'arbida joylashgan Cho'chqa Guzar va Sho'robqo'rg'on kechuvlari orqali o'tgan.

O'rta Osiyoning janubiy hududlaridagi bronza davri ko'chish jarayonlari, topografik xolat va boshka yo'nalishlardagi tadqiqotlarni taxlil yetib shunday xulosa chiqarish mumkinki, bu hududlarda ikkita zona: dashg chorvador qabilalari jadallik bilan kirib kelgan sharqiy (Shimoli —Sharqiy Afg'oniston va Janubiy Tojikiston) va o'troq dehqonchilik qabilalari band etgan g'arbiy (Shimoliy — G'arbiy Afg'oniston va Janubiy O'zbekiston) zonalarga bo'linadi.

G'arbiy zonada markazi Balxob voxasida bo'lgan dehqonchilik jamoalarining nisbatan kuchli uyushmasi shakllanadi. Bu uyushma shimoldagi chorvador qabilalarning xujumlarini muvaffaqiyatli qaytarib to'rgan. Shuningdek bu zonaning dehqonchilik jamoalari aholisi harbiy to'qnashuvlarda ishtirok yetib to'rganligani Dashlidan topilgan ko'p sonli harbiy qurol—yarog'lar ham tasdiqlaydi[5].

Amudaryoning o'ng qirg'og'ida shakllangan Sopollitepa— bronza davridagi dastlabki o'troq dehqonchilik manzilgoxi bo'lib, daryodan kechuv yo'lini himoya qiluvchi mustaxkam oldingi istehkom (forpost) sifatida paydo bo'lgan. Keyinchalik, o'troq dehqonchilik jamoalari shimoliy chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qota boshlaydi va bo'shab qoladi. Asosiy markaz vazifasi esa, tog' darasidan chiquvchi yo'l ustidagi mustahkam qal'a sifatida paydo bo'lgan Jarqo'tonga o'tadi.

Jarqo'ton yodgorligi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Sherobod daryosining ko'hna o'zani Bo'stonsoy yoqasida joylashgan. Ushbu yodgorlikda 1973 yildan boshlab uzluksiz olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida bu hududlarda ro'y bergan urbanizatsiya jarayonlariga ko'plab aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. Xususan, Jarqo'tondagi 100 gektardan kam bo'lmagan hududdan arki a'lo, shahriston, O'lkan ibodatxona qoldiqlari, metall erituvchi pechlar, 20 gektarli qabriston, ko'plab moddiy madaniyat buyumlari topib o'rganildi. Undan tashqari Jarqo'ton hududida olib borilgan tadqiqotlar ko'xna

shaharning paydo bo‘lib rivojlangan sanasini aniqlash hamda ushbu hududlarda yuz bergan tarixiy — madaniy jarayonlarni bir necha bosqichlarga ajratib o‘rganish imkoniyatini berdi. (AAsqarov).

Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Jarqo‘tondagi qadimgi shahar hayoti uch bosqichga, ya’ni, Jarqo‘ton (mil. avv. 1500—1350 yillar), ko‘zali (mil. avv. 1350 —1200 yillar) va molali (mil. avv. 1200—1000 yillar) bosqichlariga bo‘lindi. Keyinroq, Jarqo‘tonning qarama — qarshisida, Bo‘stonsoyning o‘ng soxilida o‘rganilgan yodgorliklardagi tadqiqotlar natijasida molali bosqichini ikki fazaga, ya’ni molali (mil. avv. 1200—1000 yillar) va bo‘ston (mil. avv. 1000 — 900 yillar) fazalariga bo‘lib o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mil. avv. II ming yillikning o‘rtalariga kelib Jarqo‘ton o‘sha hududlardagi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustaxkam istexkomiga aylanadi. Aftidan, aynan mana shu istexkom orqali Hisor tog‘ oldi voxalari va janubiy Tojikistonning g‘arbiy hududlariga shimoldagi aholining ko‘chishlari bo‘lib o‘tadi. Aynan mana shu hududlardan topilgan yodgorliklar topografiyasi va ularni davrlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatadi. Undan tashqari yana shu narsa xam ma’lumki, bu jarayonning rivojlanishi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi o‘troq dexqonchilik turmush tarzi kechiruvchi aholi manzilgoxlarida aholi sonining o‘sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun xam keng imkoniyatlar yaratdi[6].

Bronza davri Janubiy O‘zbekiston shaharlari xaqida gap ketar ekan shuni ta’kidlash joizki, bu davr yodgorliklari faqat arxeologik tadqiqotlar orqaligina o‘rganilib, bu davrdagi siyosiy — ma’muriy tuzilmalar hamda ijtimoiy—iqtisodiy munosabatlar esa yozma manbalarsiz, qiyosiy taqqoslash asosida o‘rganiladi. Aynan mana shuning uchun xam tadqiqotchilarning ushbu jarayonlar xususidagi xulosalari ko‘p hollarda taxminlardan iborat. Masalan, A.Asqarov va B.Abdullaevlar bronza davri rivojlanishining Jarqo‘ton bosqichini (mil. avv. II

ming yillik o'rtalari) ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilish davriga, ko'zali va molali bosqichlarini (mil. avv. II ming yillikning oxirlari) esa mulkiy tengsizlik munosabatlari paydo bo'lishi davriga oid deb qisoblaydilar. V.I.Sarianidi esa, aksincha, mil. avv. II ming yillikning ohiri I ming yillikning boshlarida davlatchilik munosabatlari shakllana boshlagan Baqtriyaning umumiy ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirib yubormaslikni taklif etadi.

Ko'pchilik olimlarning e'tirof etishlaricha, O'rta Osiyoning janubida ilk shaharlar va davlat uyushmalarining paydo bo'lish jarayoni V.M.Masson tomonidan nisbatan aniqroq izoxlangan. Tadqiqotchi bu jarayonda ikkita asosiy bosqichni ajratadi: 1) ma'lum vohalarda shahar—davlatlarning paydo bo'lishi; 2) ular asosida yirik ijtimoiy — siyosiy tartibning shakllanishi[7].

So'nggi yillardagi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan AAsqarov Jarqo'tonni, umumiy maydoni 100 gektardan kam bo'lmagan shahar—davlat sifatida izoxlaydi. Shuningdek, E.V.Rtveladze o'zining so'nggi yillardagi ishlaridan birida O'zbekiston hududidagi ilk davlatchilik masalalariga to'xtalib, mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi—O'zbekiston janubida embrional shaklda davlatga o'xshash tuzilma qaror topadi, davlatning bunday namunasi Jarqo'tonda o'z aksini topgan deyish mumkin degan fikrni ilgari suradi.

O'tgan asrdayoq fanda ishlab chiqilgan tipologiyaga asosan, ilk davlatlarning nisbatan qadimgi shakli (Mesopotamiyada) shahar—davlatlar, «nomlar» hisoblanadi. Umuman olganda nom davlatlar, shahar—davlatlar, jamoalar va vohalar markazlarini Jarqo'ton misolida qiyosiy taxlil qilish mumkin.

Xulosa. Tadqiqotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Jarqo'tonda manzilgoxdan tashqarida bunyod etilgan maxsus qabristonlar Sopolliga nisbatan jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi yuqori darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Undan tashqari, ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqargan kulollarning aloxida mahallalari shakllanishi xam jamiyatning nisbatan yuqori darajada rivojlanganligini muhim belgisi hisoblanadi. Bu davrda Jarqo'ton jamiyatidagi kulolchilik ixtisosligi maxsulot ishlab chiqarishda ustun darajada edi.

Undan tashqari, qabrlardan topilgan buyumlarning soni va sifati mulkiy tabaqalanish nisbatan kuchayganligidan dalolat beradi. Jarqo‘ton manzilgoxlar majmui Bo‘stonsoy voxasida markazlashgan va tabiiy chegaralar—dasht va tog‘ oldi bilan chegaralangan jamiyatni o‘zida aks ettiradi.

Umuman olganda, Jarqo‘ton ko‘rinishidagi manzilgoxlar majmuini nom davlatlar bilan qiyoslash uchun yetarli qator umumiy belgilar bor. Ammo, Mesopotamiyadagi nom davlatlar uchun xos bo‘lgan yozuv namunalari Jarqo‘tondan topilmagan. Shunga qaramay tarixdan bizga ma‘lumki, insoniyat tarixida o‘z yozuviga ega bo‘lmagan davlat uyushmalari xam mavjud bo‘lgan.

Yuqoridagilardan xulosa yasab aytish mumkinki, bronza davri Janubiy O‘zbekiston hududlarida yashagan o‘troq dehqonchilik jamoalari jamiyat taraqqiyotining yuqori pog‘onasida bo‘lib, ibtidoiylikning so‘nggi bosqichidan sivshshzatsiyaga o‘tadilar. Ushbu sivilizatsiyaning boshlanishi shaharmonand (protogorod) belgilarni o‘zida aks ettirgan Sopollitepa bo‘lgan bo‘lsa, Jarqo‘ton aynan yirik shahar belgilarini o‘zida mujassamlantirgan markaz edi. Fikrimizcha, aynan Jarqo‘tonning o‘zi O‘zbekiston hududlaridaga ilk shaharlarning yorqin misoli edi. Sherobod voxasidagi shu davrga oid Jarqo‘ton majmuiga kiruvchi manzilgoxlar ' guruxini esa shahar—davlat yoki nom davlatlar sirasiga ' kiritishimiz mumkin. Yoki xech bo‘lmaganda, mil. avv. II ming yillikning so‘nggi choragida Shimoliy Baqtriya hududlarida yirik va mustahkamlangan markazlarga ega bo‘lgan, nom yoki voxa ko‘rinishidagi davlatlarning boshlanish bosqichida bo‘lgan hududiy — siyosiy birlashmalar shakllana boshlagan degan g‘oyani ilgari surishimiz mumkin. Shunday qilib, Surxon vohasi nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo hududlarida ilk urbanistik markazlardan biri hisoblanib, ushbu hududlarda urbanizatsiya jarayonlarining boshlanish sanasi 4000 yildan kam emas deyishga jiddiy ilmiy asoslar bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Taraqqiyot yo‘limizning shiddati oshaveradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil 28 dekabr.
2. Eshov B. sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. T.: 2004.
3. Eshov B. Qadimgi O‘rta Osiyo shaharlari tarixi. T.:2006.
4. Qudratov S. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. G.:1998.
5. Qudratov S. O‘rta Osiyo ilk shaharlari va davlatlari. G.:2006.
6. Po‘latov X. Shaharsozlik tarixi. T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008.
7. Is‘hoqov M., Qudratov S., Qodirova D. O‘rta Osiyo ilk shaharlari va davlatlari tarixidan. T.:2010.